QURULTOY DOIRASIDAGI MUHIM HAMKORLIK

Xitoy Xalq Respublikasining Szinanь shahrida o’z ishini davom ettirayotgan Fanlar akademiyalari xalqaro assotsiatsiyasi (MAAN) Ilmiy kengashlarining II qurultoyi doirasida muhim voqealardan biri — ilmiy hamkorlik loyihalarini rasmiy imzolash marosimi bo’lib o’tdi.

Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamda Xitoy Fanlar akademiyasi o’rtasida ikki yo’nalishdagi qo’shma loyihalar imzolandi:

“O’zbekistonning maxsus shifobaxsh resurslarini faol va samarali tarkibiy qismlarini yaratish va qo’llash”;

“O’simliklar rivojlanishiga ko’maklashuvchi mikroorganizmlarning birgalikda o’rganilishi va ishlab chiqilishi”.



Mazkur loyihalar O’zbekiston va Xitoy o’rtasidagi ilmiy-texnologik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi, biotexnologiya va farmatsevtika sohalarida innovatsion tadqiqotlar olib borilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, O’zbekiston Fanlar akademiyasi delegatsiyasi Shanьdun provintsiyasi Fanlar akademiyasi (Xitoy), Belarus Milliy fanlar akademiyasi va Qirg’iziston Fanlar akademiyasi vakillari bilan ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yo’nalishlari yuzasidan muzokaralar olib bordi.

Qurultoy doirasida O’zbekiston delegatsiyasi a’zolari xalqaro anjumanda ilmiy ma’ruzalar bilan ishtirok etmoqda. Ular tomonidan taqdim etilgan ma’ruzalarda ilmiy tadqiqotlar, yangi texnologiyalar va ko’p tomonlama hamkorlik masalalari keng yoritilmoqda.